



THE ISSUES OF PERSONAL DATA, CONFIDENTIALITY, AND ETHICAL RESPONSIBILITY IN THE ACTIVITIES OF CIVIL SERVANTS IN THE CONTEXT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND DIGITALIZATION

Akhrorjon Makhkamov

Researcher at Fergana State University

Science ID: MFR-0426-0026

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: artificial intelligence, digitalization, public servant, personal data, privacy, ethical responsibility.

Received: 09.09.26

Accepted: 10.09.26

Published: 11.09.26

Abstract: This thesis provides a socio-philosophical analysis of personal data protection, privacy, and ethical responsibility in the activities of public servants under the conditions of artificial intelligence and digitalization. Although digital governance enables public authorities to collect, process, and analyze large volumes of data rapidly, these capabilities require a reconsideration of the boundaries governing public servants' use of information about citizens. Particular attention is paid to the need to balance the effectiveness of digital public administration with the protection of citizens' rights and compliance with ethical principles in the handling of personal data.

SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA DAVLAT XIZMATCHISI FAOLIYATIDA SHAXSIY MA'LUMOTLAR, MAXFIYLIK VA AXLOQIY MAS'ULIYAT MUAMMOSI

Axrorjon Maxkamov

Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi

Ilmiy identifikatsiya raqami: MFR-0426-0026

Farg'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, raqamlashtirish, davlat xizmatchisi, shaxsiy ma'lumotlar, maxfiylik, axloqiy mas'uliyat.

Annotatsiya: Mazkur tezisda sun'iy intellekt va raqamlashtirish sharoitida davlat xizmatchisi faoliyatida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, maxfiylik va axloqiy mas'uliyat

masalalari ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Raqamli boshqaruv davlat organlariga katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish imkonini berayotgan bo'lsa-da, ushbu imkoniyatlar davlat xizmatchisining fuqarolar haqidagi ma'lumotlardan foydalanish chegaralarini qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda.

ПРОБЛЕМЫ ПЕРСОНАЛЬНЫХ ДАННЫХ, КОНФИДЕНЦИАЛЬНОСТИ И ЭТИЧЕСКОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ СЛУЖАЩИХ В УСЛОВИЯХ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ЦИФРОВИЗАЦИИ

Ахроржон Макхамов

Исследователь Ферганского государственного университета

Научный идентификационный номер: MFR-0426-0026

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: искусственный интеллект, цифровизация, государственный служащий, персональные данные, конфиденциальность, этическая ответственность.

Аннотация: В данном тезисе с социально-философской точки зрения анализируются вопросы защиты персональных данных, конфиденциальности и этической ответственности в деятельности государственного служащего в условиях искусственного интеллекта и цифровизации. Хотя цифровое управление предоставляет государственным органам возможности оперативного сбора, обработки и анализа больших объемов данных, эти возможности требуют пересмотра границ использования государственными служащими информации о гражданах. Особое внимание уделяется необходимости обеспечения баланса между эффективностью цифрового государственного управления, защитой прав граждан и соблюдением этических принципов при работе с персональными данными.

Kirish. Raqamlashtirish jarayonida ma'lumot davlat boshqaruvining eng muhim resurslaridan biriga aylanmoqda. Davlat organlari fuqarolarning ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va

ma'muriy faoliyatiga oid katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Sun'iy intellekt esa ushbu ma'lumotlardan oddiy statistik axborot sifatida foydalanishdan tashqari, muayyan xatti-harakatlarni prognoz qilish, xavflarni aniqlash va qarorlarni avtomatlashtirish imkoniyatini yaratmoqda. Bunday sharoitda davlat xizmatchisining ma'lumotlarga munosabati ham o'zgarishi zarur. Ma'lumotni "davlat ixtiyoridagi resurs" sifatida qabul qilish yetarli emas. Chunki ma'lumotlarning katta qismi real insonlarga tegishli bo'lib, ularni qayta ishlash natijasi fuqaroning huquqiy yoki ijtimoiy holatiga ta'sir qilishi mumkin. Shuning uchun ma'lumotlar bilan ishlashda "foydalanish mumkinligi" va "foydalanish axloqan maqbulligi" o'rtasidagi farqni ajratish muhim. Davlat xizmatchisi texnik jihatdan mavjud bo'lgan ma'lumotdan har qanday maqsadda foydalanish huquqiga ega bo'lmasligi kerak. Ma'lumotlardan foydalanishning qonuniyligi bilan bir qatorda, uning maqsadga muvofiqligi, mutanosibligi va inson huquqlariga mosligi ham baholanishi lozim.

Sun'iy intellekt va raqamlashtirish sharoitida davlat boshqaruvi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, maxfiylik va axloqiy mas'uliyat masalalari zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mazkur muammo texnologik taraqqiyot masalalari bilangina cheklanib qolmay, inson huquqlari, shaxsiy hayot daxlsizligi, davlat va fuqaro o'rtasidagi ishonch hamda davlat xizmatchisining professional mas'uliyati bilan chambarchas bog'liq.

Sun'iy intellekt etikasi masalasida UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan "Sun'iy intellekt etikasi bo'yicha tavsiya" muhim nazariy manbalardan biri hisoblanadi. Unda inson qadr-qimmat, inson huquqlari, shaffoflik, adolatlilik, hisobdorlik va maxfiylik sun'iy intellektni rivojlantirish va undan foydalanishning asosiy tamoyillari sifatida ko'rsatiladi [2]. Mazkur yondashuv davlat boshqaruvida AI texnologiyalaridan foydalanishda texnik samaradorlik bilan bir qatorda inson manfaatlarini ustuvor qo'yish zarurligini asoslaydi.

Yevropa Ittifoqining shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishga oid yondashuvlarida ham ma'lumotlarni qonuniy, adolatli va shaffof tarzda qayta ishlash, maqsadni cheklash, ma'lumotlarni minimallashtirish hamda fuqaroning shaxsiy hayotini himoya qilish tamoyillariga alohida e'tibor beriladi. Ushbu konsepsiyalar davlat organlari tomonidan katta hajmdagi ma'lumotlardan foydalanishda "texnik jihatdan mumkin" bo'lgan faoliyat bilan "huquqiy va axloqiy jihatdan maqbul" faoliyat o'rtasidagi farqni aniqlash uchun muhim nazariy asos yaratadi.

Materiallar va metodlar. Sun'iy intellekt va raqamlashtirish sharoitida davlat boshqaruvi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, maxfiylik va axloqiy mas'uliyat masalalari zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mazkur muammo texnologik taraqqiyot masalalari

bilangina cheklanib qolmay, inson huquqlari, shaxsiy hayot daxlsizligi, davlat va fuqaro o'rtasidagi ishonch hamda davlat xizmatchisining professional mas'uliyati bilan chambarchas bog'liq.

Sun'iy intellekt etikasi masalasida UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan "Sun'iy intellekt etikasi bo'yicha tavsiya" muhim nazariy manbalardan biri hisoblanadi. Unda inson qadr-qimmati, inson huquqlari, shaffoflik, adolatlilik, hisobdorlik va maxfiylik sun'iy intellektni rivojlantirish va undan foydalanishning asosiy tamoyillari sifatida ko'rsatiladi [2]. Mazkur yondashuv davlat boshqaruvida AI texnologiyalaridan foydalanishda texnik samaradorlik bilan bir qatorda inson manfaatlarini ustuvor qo'yish zarurligini asoslaydi.

Yevropa Ittifoqining shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishga oid yondashuvlarida ham ma'lumotlarni qonuniy, adolatli va shaffof tarzda qayta ishlash, maqsadni cheklash, ma'lumotlarni minimallashtirish hamda fuqaroning shaxsiy hayotini himoya qilish tamoyillariga alohida e'tibor beriladi. Ushbu konsepsiyalar davlat organlari tomonidan katta hajmdagi ma'lumotlardan foydalanishda "texnik jihatdan mumkin" bo'lgan faoliyat bilan "huquqiy va axloqiy jihatdan maqbul" faoliyat o'rtasidagi farqni aniqlash uchun muhim nazariy asos yaratadi.

Muhokama va natijalar. Sun'iy intellektlashuv davlat xizmatchisi mas'uliyatining yangi ko'rinishini — ma'lumotlar mas'uliyatini shakllantirmoqda. Ma'lumotlar mas'uliyati davlat xizmatchisining fuqarolarga tegishli ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanishda huquqiy hamda axloqiy me'yorlarga rioya etishini anglatadi.

Mazkur mas'uliyat kamida to'rt jihatni qamrab oladi: ma'lumotlarning qonuniy manbadan olinganligi; ma'lumotlardan belgilangan maqsadga muvofiq foydalanish; ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash; ma'lumotlardan foydalanish natijasida fuqaroning huquqlari buzilmasligini nazorat qilish. Bu yerda davlat xizmatchisining professional faoliyati oddiy "ma'lumot bilan ishlash"dan "inson haqidagi ma'lumot uchun javob berish" darajasiga ko'tariladi. Ayniqsa, sun'iy intellekt ma'lumotlardan yangi xulosalar chiqarishi mumkinligi ushbu mas'uliyatni yanada murakkablashtiradi. Masalan, mavjud ma'lumotlar asosida fuqaroning kelajakdagi xatti-harakati yoki muayyan xizmatdan foydalanish ehtimoli haqida prognoz qilish mumkin. Demak, fuqaro o'zi bevosita taqdim etmagan xulosa ham uning haqidagi ma'lumotlardan chiqarilishi mumkin. Shu sababli zamonaviy davlat xizmatchisi nafaqat "qaysi ma'lumotga egaman?", balki "ushbu ma'lumotdan qanday xulosa chiqarish mumkin va bu xulosa fuqaro hayotiga qanday ta'sir qiladi?" degan savollarni ham berishi kerak.

An'anaviy jamiyatda shaxsiy hayotning chegaralari nisbatan aniq tasavvur qilingan. Raqamli jamiyatda esa insonning shaxsiy hayoti tobora ko'proq raqamli izlar orqali ifodalanmoqda. Fuqaroning davlat xizmatlaridan foydalanishi, murojaatlari, iqtisodiy faoliyati va

turli ma'muriy jarayonlardagi ishtiroki raqamli ma'lumot sifatida saqlanishi mumkin. Bu jarayon shaxsiy hayot tushunchasining o'zini ham o'zgartirmoqda. Shaxsiy hayot endilikda faqat insonning jismoniy yoki oilaviy makoni emas, balki uning raqamli mavjudligi bilan ham bog'liq. Shu jihatdan davlat xizmatchisining maxfiylikka munosabati oddiy xizmat intizomi emas, balki inson qadr-qimmatini himoya qilishning bir ko'rinishidir. UNESCO sun'iy intellekt etikasi bo'yicha tavsiyasida maxfiylik va ma'lumotlarni himoya qilish inson huquqlarini ta'minlashning fundamental shartlaridan biri ekanini qayd etadi [2. 12–16-b.].

Sun'iy intellekt davlat xizmatlarini fuqarolarning ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beradi. Masalan, tizim fuqaroning oldingi murojaatlari asosida unga muayyan xizmatlarni tavsiya qilishi mumkin. Dastlab bu qulaylik sifatida ko'rinadi. Biroq davlatning fuqaroga "nima kerakligini" algoritmik tarzda belgilashi kuchaygan sari algoritmik paternalizm xavfi paydo bo'ladi.

Algoritmik paternalizm — texnologik tizimlar orqali fuqaroning manfaatlarini uning o'rniga belgilash yoki uning tanlovlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatish holatidir. Davlat xizmatlarida bunday yondashuv ehtiyotkorlikni talab qiladi. Chunki davlatning vazifasi fuqaro o'rniga barcha qarorlarni qabul qilish emas, balki uning ongli va erkin qaror qabul qilishi uchun zarur sharoit yaratishdir. Shu nuqtayi nazardan davlat xizmatchisi sun'iy intellektdan foydalanganda fuqaroning avtonomiyasini saqlashi kerak. AI tavsiya berishi mumkin, lekin fuqaroning huquqiy va ijtimoiy tanlovini to'liq almashtirmasligi lozim.

Sun'iy intellektdan foydalanish sharoitida davlat xizmatchisi ko'pincha texnologik imkoniyat va axloqiy cheklov o'rtasida tanlov qilishi mumkin. Masalan, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash imkoniyati davlat organiga ma'lum ijtimoiy guruhlar haqida batafsil prognozlar qilish imkonini beradi. Texnik jihatdan bunday imkoniyat mavjud bo'lishi mumkin, biroq uning har doim ham axloqiy jihatdan maqbul ekanini anglatmaydi. Shu sababli davlat xizmatchisining yangi professional kompetensiyasi "texnologik imkoniyatni axloqiy jihatdan baholash" qobiliyatini ham qamrab olishi kerak. Bu esa davlat xizmatida quyidagi prinsipni ilgari surishni talab qiladi: Texnologik jihatdan mumkin bo'lgan har qanday amal ijtimoiy jihatdan maqbul amal hisoblanmaydi. Mazkur prinsip sun'iy intellektdan foydalanish chegaralarini belgilashda muhim metodologik asos bo'la oladi.

Fuqaro davlatga o'z ma'lumotlarini taqdim etayotganida, ma'lum ma'noda davlat institutlariga ishonch bildiradi. Shu sababli shaxsiy ma'lumotlarning noqonuniy yoki mas'uliyatsiz ishlatilishi faqat individual huquq buzilishi emas, balki davlatga bo'lgan ijtimoiy ishonchning pasayishiga ham olib kelishi mumkin.

Raqamli davlat sharoitida ishonchning muhim formulasi quyidagicha ifodalanishi mumkin: ishonch = qonuniylik + shaffoflik + xavfsizlik + hisobdorlik. Agar fuqaro uning ma'lumotlari qayerda saqlanishini, qanday maqsadda ishlatilishini va noto'g'ri qaror yuzaga kelganda kimga murojaat qilish mumkinligini bilsa, raqamli davlatga bo'lgan ishonch kuchayadi. Aksincha, algoritmik qarorlar tushunarsiz bo'lib qolsa, ma'lumotlar qanday ishlatilishi haqida noaniqlik mavjud bo'lsa yoki fuqaro o'z ma'lumotlari ustidan nazoratga ega emasligini his qilsa, raqamlashtirish davlatga yaqinlashuv emas, balki davlatdan begonalashuvga olib kelishi mumkin.

Sun'iy intellekt va raqamlashtirish sharoitida davlat xizmatchisining mas'uliyati ma'lumotlardan texnik foydalanish chegarasidan chiqib, insonning raqamli huquqlari va shaxsiy hayotini himoya qilish mas'uliyatiga aylanmoqda. Ma'lumot davlat boshqaruvining muhim resursiga aylangan sari, u bilan ishlovchi davlat xizmatchisining axloqiy mas'uliyati ham ortadi.

Mazkur jarayonda davlat xizmatchisi uchun uchta asosiy talabni ajratish mumkin. Birinchisi - ma'lumotlardan qonuniy foydalanish. Ikkinchisi — ma'lumotlardan foydalanishning axloqiy oqibatlarini baholash. Uchinchisi — fuqaroning raqamli avtonomiyasi va maxfiyligini himoya qilish. Demak, sun'iy intellektlashuv sharoitida davlat xizmatchisining professional yetukligi faqat texnologik bilim bilan belgilanmaydi. Uning haqiqiy professionalligi inson haqidagi ma'lumotni oddiy boshqaruv resursi emas, balki insonning huquqlari, qadr-qimmati va shaxsiy hayoti bilan bog'liq qadriyat sifatida anglay olishida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan raqamli davlatning asosiy vazifasi fuqaroni ko'proq "ma'lumotlashtirish" emas, balki texnologiyalar yordamida fuqaroning huquq va erkinliklarini yanada ishonchli himoya qilishdan iborat bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. OECD. OECD AI Principles. Paris: OECD Publishing, 2024. 12 p.
2. UNESCO. Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence. Paris: UNESCO, 2021. 44 p.
3. Floridi, L. The Ethics of Information. Oxford: Oxford University Press, 2013. 376 p.
4. Zuboff, S. The Age of Surveillance Capitalism: The Fight for a Human Future at the New Frontier of Power. New York: PublicAffairs, 2019. 704 p.
5. Nissenbaum, H. Privacy in Context: Technology, Policy, and the Integrity of Social Life. Stanford: Stanford University Press, 2010. 304 p.
6. Solove, D. J. Understanding Privacy. Cambridge, MA: Harvard University Press, 2008. 272 p.

7. Eubanks, V. Automating Inequality: How High-Tech Tools Profile, Police, and Punish the Poor. New York: St. Martin's Press, 2018. 272 p.
8. Crawford, K. Atlas of AI: Power, Politics, and the Planetary Costs of Artificial Intelligence. New Haven: Yale University Press, 2021. 336 p.
9. Mittelstadt, B. D., Allo, P., Taddeo, M., Wachter, S., Floridi, L. The Ethics of Algorithms: Mapping the Debate // Big Data & Society. London: SAGE Publications, 2016. Vol. 3, No. 2. 1–21 p.
10. Castells, M. The Rise of the Network Society. 2nd ed. Oxford: Wiley-Blackwell, 2010. 656 p.